



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 394 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
<i>Xuseynova Abira Amanovna</i>	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
<i>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</i>	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
<i>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</i>	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
<i>Asatova Dildora Aslamovna</i>	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
<i>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</i>	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
<i>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</i>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
<i>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</i>	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
<i>Mitaliboyeva Dildora</i>	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
<i>Nartayeva Shahoza Yulchibayevna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
<i>Normatova Nilufar Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
<i>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
<i>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</i>	
“Sab'ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
<i>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</i>	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
<i>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
<i>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
<i>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</i>	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Урзова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалла" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	
Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati.....	139
Berkinova Charos Islomovna	
O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi	142
Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	145
Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi	
Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya	150
Ergasheva Umriniso Komilovna	
Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirish omilidir.....	153
Ermatova Gulnoz Pirimovna	
O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni	156
Gazibekova Feruza Hakimovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi	159
Haydarova Feruza Haydar qizi	
Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi.....	162
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi.....	165
Jumayeva Malika Aliyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish.....	168
Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..	172
Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari.....	175
Masharipova Dilfuza Muxammatjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi	178
Muhammadiyeva Feruza Turakulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi.....	181
Muhiddinova Munira Xayrullayevna	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	184
Narzullayeva Sevara Omonovna	
O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	187
Nizamova Nodira Paxritdinovna	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi	191
Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova	
Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi	195
Nodira Sherboyeva	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida 198 O'ktam Nosirov
	Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi..... 204 Rustamova Shoxista Omonjonovna
	Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari..... 208 Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li
	Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari 212 Sa'dullayeva Rushana
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish 215 Saidova Dilbar Erkinovna
	Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari..... 218 Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi
	Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish 223 Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi
	Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi 226 Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi
	Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari..... 229 Yaqubova Shoira Tog'aymuratovna
	Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari..... 233 Yarmatov Raxmboy Baxramovich
	Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish 239 Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi
	Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык 242 Марупова Дилфуза Давроновна
	Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari 247 F. R. Xosilova
	Boshlang'ich ta'lim texnologiya darslarida o'quvchilarni tabiiy materiallar bilan ishlashga o'rgatish 251 Kambarov Nodirjon Sattarovich, Nasirjanova Feruzaxon Alixon qizi
	Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvining qo'llanilishi va uning samaradorligi..... 256 Abdulazizova Yulduz Abdujabbor qizi
	Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuvi asosida kreativlikni rivojlantirish metodikasi 259 Abdullayeva Dilrabo Fayzulla qizi
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarda shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari..... 262 Aliyeva Zuxra Tursunboyevna
	Yosh avlodni madaniy-tarixiy yondashuv asosida tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni.. 265 Aripov Shokirjon Olimovich
	Ta'limda yangi texnologiya: 4K modeli va uni amalga oshirish yo'llari..... 268 Avliyoqulova Nasiba Choriyevna
	Badiiy-tarixiy materiallarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning metodologik asoslari..... 272 Baratov Baxtiyorjon Qodirovich
	Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishida o'yinning roli..... 275 Barno Masharipova Erkin qizi, Zuhrobova Mahliyo Abdulatif qizi
	Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida integrativ yondoshuvdan foydalanish texnologiyasi 278 Ernazarova Laylo Abdusaitovna, Saidahmadova Gulrux Farrux qizi
	Bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 284 Ismailova Nilufar Isroildjanovna
	Semantic and Cross-Cultural Features of Food-Based Idioms in Karakalpak and English Languages..... 289 Jiemuratova Gulistan Koshkinbaevna
	Filolog talabalarida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantirishda metakognitiv yondashuvlarning didaktik mexanizmlari..... 292 Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi
	Rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini rivojlantirish 296 Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi



Psixologlar kasbiy komponentlarini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	302
Kuziyeva Dilnura Dilmurotovna	
O'zbekiston metodik maktabida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili	306
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari	313
Maqsudova Nodira Alijonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ertakterapiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	317
Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi	
Nutq madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi nutqining roli.....	320
N. Q. Olimova	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	323
Narzullayeva Sevara Omonovna	
O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi	326
Normirzayeva Maftunaxon Ilyosjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda intensiv ta'lim texnologiyalarining metodik asoslari.....	329
Oloqulova Farzona Umedillayevna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik kompetentligini oshirish metodikasi.....	332
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	335
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning xorijiy pedagogik amaliyotdagi modellari	339
Sultonova Zarina Uchqun qizi	
Xalq pedagogikasida ertaklarning tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati: ma'naviy begonlashuvga qarshi tarbiyaviy omil sifatida.....	343
To'xtasinova Farida Davlatali qizi	
B1 darajadagi talabalar uchun xorijiy tilni o'qitishda audiovizual texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishning metodik asoslari	347
Toshpulatova Shaxsanam Xolmurodovna	
Kontekstli ta'lim va uning boshlang'ich ta'lim matematikasidagi ahamiyati haqida	350
Umarova Nigora Alisherovna	
Oiladagi psixologik muhitning o'spirinlarda to'liqsizlik kompleksi shakllanishiga ta'siri	353
Xalmuratova Dilorom Abdikarimovna	
Ta'limda faktcheking: misinformatsiya va dizinformatsiyaga qarshi kurashishning pedagogik asoslari	356
Xidirova Maftuna Ithom qizi	
Maktab o'quvchilarini falsafiy va dunyoqarashga tayyorlash omillari	362
Xo'shboqova Farida Komiljon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq faoliyatini rivojlantirishning lingokognitiv asoslari	370
Xusanova Gulruxsor To'lqin qizi, Aliyeva Muhlis Baxodir qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini oshirish	374
Zokirova Sohobaxon Muxtaraliyevna, Erkinova Nazokatxon Anvarjon qizi	
Эффективность занятий кроссфитом в повышении уровня общей физической подготовленности слушателей института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан	377
Албеков Шокир Адилбекович	
Роль торговых и кочевых маршрутов в формировании лингвокультурных заимствований между Хорезмом и Южной Сибирью.....	381
Сатымова Светлана Сатымовна	
Использование искусственного интеллекта в обучении русскому языку как иностранному: проблемы и решения.....	385
Ташева Дилором Салимовна	
Проблемы использования коммуникативного метода в преподавании русского языка студентам	389
Тоджибоева Наргиза Джумабоевна	



TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Rustamova Shoxista Omonjonovna
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu maqolada tadqiqotchilik kompetensiyalarining nazariy asoslari, ularni rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar, shuningdek, turli pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik kompetensiyalari, talaba, oliy ta'lim, nazariy asoslar, pedagogik yondashuv, ilmiy izlanish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim.

Abstract: In the modern pedagogical process, the development of students' research competencies is recognized as one of the main tasks of higher education. This article analyzes the theoretical foundations of research competencies, the psychological and pedagogical factors influencing their development, as well as various pedagogical approaches and technologies.

Key words: research competencies, student, higher education, theoretical foundations, pedagogical approach, scientific research, competency-based education.

Аннотация: В современном педагогическом процессе формирование исследовательских компетенций студентов проявляется как одна из основных задач высшего образования. В данной статье анализируются теоретические основы исследовательских компетенций, психологические и педагогические факторы, влияющие на их развитие, а также различные педагогические подходы и технологии.

Ключевые слова: исследовательские компетенции, студент, высшее образование, теоретические основы, педагогический подход, научные исследования, компетентностно-ориентированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy pedagogik jarayonlarda talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri sifatida ko'riladi. Bu kompetensiyalar talabalarga nafaqat o'quv jarayonida, balki kelajakdagi professional faoliyatida ham muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini beradi. Tadqiqotchilik kompetensiyalari shaxsning mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish, ma'lumotlarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, muammolarni hal qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantiradi. Shu bilan birga, bunday kompetensiyalar pedagogik ta'limning sifatini va talabalarning ijtimoiy-professional moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi ^[1].

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi bir necha nuqtai nazardan o'rganilgan. Birinchi navbatda, bu jarayon pedagogik nazariya asosida ilmiy asoslantirilishi zarur. Kompetensiya tushunchasi XXI-asr pedagogikasida markaziy tushunchalardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, u shaxsning ma'lum faoliyat turini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar majmuini ifodalaydi ^[2].

Tadqiqotchilik kompetensiyalari esa maxsus ilmiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, ular talabaning analitik fikrlash, tadqiqot metodlarini tanlash va qo'llash, ilmiy natijalarni tizimlashtirish hamda ilmiy axborotni tanqidiy baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ikkinchi nuqtai nazardan, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda psixologik va pedagogik omillar muhim rol o'ynaydi. Talaba faolligi va mustaqilligi, motivatsiya va qiziqish darajasi, shuningdek, pedagogik jarayonda qo'llaniladigan metodlar va texnologiyalar tadqiqotchilik kompetensiyalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (Kolb, 2020). Shu bois zamonaviy ta'lim jarayonida konstruktivizm, faol o'quvchi yondashuvi va kompetensiyaga asoslangan ta'lim konsepsiyalari keng qo'llaniladi. Bu yondashuvlar talabaning ilmiy izlanishlarga faol jalb etilishini ta'minlaydi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ilmiy natijalarga erishishdagi shaxsiy javobgarlikni oshiradi ^[3].

Shuningdek, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va elektron resurslardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ilmiy izlanishlarda talabalarga ilmiy ma'lumotlarni qidirish, tanqidiy tahlil qilish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish va natijalarni vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi turli platformalar va dasturiy vositalar keng qo'llaniladi. Bu jarayonlar nafaqat talabalarning metodik bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni global ilmiy maydonda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Oliy ta'lim tizimida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi bir qator pedagogik yondashuvlar bilan bog'liq. Jumladan, problemaga yo'naltirilgan o'qitish, loyiha asosida o'qitish, vaziyatli o'qitish, ko'rgazmali va interaktiv metodlar talabalarda mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [4]. Shu bilan birga, ilmiy seminarlar, laboratoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar va ijtimoiy tadbirlar orqali talabalar o'zining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtiradi, bu esa tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish nazariy asoslari keng yoritilgan. Masalan, konstruktivizm nazariyasi talabani o'z bilimini mustaqil shakllantirish va yangi bilimlarni oldindan mavjud bilim bilan integratsiya qilishga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi [5]. Bu yondashuv tadqiqotchilik faoliyati uchun zarur bo'lgan tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli talabani ilmiy salohiyatini aniqlash, uni rivojlantirish va baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu model talabani nafaqat bilim darajasini, balki ko'nikma va shaxsiy sifatlarini ham integrativ tarzda rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarining shakllanishida pedagogik nazariyalar bilan bir qatorda, o'quv jarayonining amaliy jihatlari ham katta ahamiyatga ega. Talabalarning ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishi, eksperimentlar o'tkazishi, ma'lumotlarni tahlil qilishi va ilmiy natijalarni taqdim etishi ularning metodologik tayyorgarligi va tadqiqot salohiyatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy oliy ta'limda talabalarning ilmiy ishga jalb etilishi, ilmiy loyihalarda ishtirok etishi va akademik yozuvlarni ishlab chiqishi tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi [6].

Shuni ta'kidlash joizki, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar orqali erishish nafaqat talabani individual rivojlanishiga, balki butun oliy ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunda pedagogik jarayon talaba faoliyatiga markazlashtirilgan bo'lishi, uning mustaqil fikrlashini rag'batlantirishi va ilmiy faoliyatga qiziqishini oshirishi zarur. Shu asosda ushbu maqola talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslarini tizimli tarzda yoritishga, bu jarayondagi psixologik, pedagogik va metodologik omillarni aniqlashga hamda zamonaviy ta'lim yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Maqola doirasida ilg'or xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari o'rganilib, talabalarning tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishning samarali yo'llari va nazariy asoslari taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning tadqiqotchilik (research) kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va metodologik aspektlarini tushunishda chet el olimlarining yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki muhim ilmiy manba – Carlos Enrique George-Reyes va hamkasblari (2025) hamda S. Sumarni ushbu mavzuni chuqur tahlil qilgan bo'lib, ularning ishlari talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish kontsepsiyasiga fundamental nazariy asos beradi. Birinchi ilmiy manba, George-Reyes va boshqalarning "Research Competencies in University Students: Intertwining Complex Thinking and Education 4.0" nomli maqolasida talabalarning ilmiy kompetensiyalari faqatgina metodik ko'nikmalar emas, balki murakkab fikrlash va Ta'lim 4.0 konteksti bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi [7]. Ularning fikricha, tadqiqotchilik kompetensiyasi talabani analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ta'limning raqamli va innovatsion yondashuvlari, xususan Ta'lim 4.0 tamoyillari orqali yanada mustahkamlanadi. George-Reyes va jamoasi o'z tadqiqotida kompetensiyani bir nechta komponentlarini belgilaydi: bilim (gnoseologik), amaliy metodlar, shaxsiy (motivatsiya, izlanishga bo'lgan tayyorlik) va natijalarni baholash hamda taqdim qilish qobiliyati. Shu bilan birga, ular kompetensiyani rivojlanishi uchun muhim omil sifatida ta'lim muhitini – ya'ni sinf strukturasi, interaktivlik, loyihaviy ishlash (project-based learning) va hamkorlikka asoslangan metodlarni ko'rsatadi. Ikkinchi muhim manba – S. Sumarni tomonidan "Developing Research Competence in Prospective ..." nomli maqola – o'zgaruvchan oliy ta'lim kontekstida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha amaliy modelni taklif qiladi.

Sumarni yondashuvi shundan iboratki, talabalar ilmiy-metodologik tayyorgarlikni oddiy nazariy mashg'ulotlardan tashqari "ilmiy loyiha ishlari" orqali egallaydilar [8]. Maqolada u loyiha asosida o'qitish (project-based learning) metodini tadqiqotchilik tayyorgarligida samarali vosita sifatida belgilaydi: talabalar mustaqil ravishda tadqiqot g'oyalari ishlab chiqish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish bosqichla-



ridan o'tadilar. Shuningdek, Sumarnining tajribasi shuni ko'rsatadiki, loyiha usuli talabalarni faollashtirish, ularning metodik va kommunikativ qobiliyatlarini oshirishda juda samarali – ayniqsa, rahbarlik va mentorlik nazariy jihatdan tartibga solingan ta'lim modullari bilan qo'llanganda. George-Reyes va Sumarni yondashuvlari o'zaro to'ldiruvchi hisoblanadi: bir tomondan, George-Reyes murakkab fikrlash va raqamli ta'lim kontekstida tadqiqotchilik kompetensiyasining nazariy bazasini taqdim etsa, ikkinchi tomondan, Sumarnining loyiha asosidagi metodi ushbu nazariyani amaliyotda qanday joriy qilish mumkinligini ko'rsatadi. Bu ikki olimga asoslangan nazariy asoslar talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish uchun nazariy va amaliy strategiya yaratadi, shuningdek, o'quv muhitini optimallashtirish va ta'lim modullarini loyihalashda strategik yo'nalishlarni belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o'rganishda bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, tadqiqot metodlari kombinatsiyasi asosida ilmiy-nazariy asoslarni amaliyotga tadbiiq etish nazarda tutildi. Bu jarayonda sifatli va miqdoriy metodlarning integratsiyasi amalga oshirildi: sifatli metodlar orqali talabalar fikr va tajribalarini chuqur tahlil qilish, miqdoriy metodlar orqali esa kompetensiyalarning rivojlanish darajasini o'lchash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, metodologik yondashuvda loyiha asosida o'qitish (project-based learning) va muammoga yo'naltirilgan o'qitish metodlari birgalikda qo'llanilib, talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda eksperimental va empirik usullar ham ishlatildi. Eksperimental usul orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi sinovdan o'tkazildi, empirik metod esa ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonida qo'llanildi. Shu bilan birga, pedagogik kuzatish, intervyu va so'rovnomalar orqali talabalarning faoliyati, motivatsiyasi va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi individual yondashuvlar aniqlandi. Metodologik jarayonda George-Reyes va Sumar tavsiyalariga muvofiq, kompetensiyaga asoslangan ta'lim va faol o'quvchi yondashuvi konsepsiyalari integratsiyalashgan holda qo'llandi. Bu esa talabalarning ilmiy izlanishlar olib borish, metodologik qarorlar qabul qilish va natijalarni tizimlashtirish qobiliyatini shakllantirishga imkon berdi. Shu tariqa, maqolada qo'llangan metodlar nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtai nazardan ham talabalarning tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda nazariy va metodologik yondashuvlarning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Eksperimental sinovlar va empirik kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, loyiha asosida o'qitish va problemaga yo'naltirilgan metodlar talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatini sezilarli darajada rag'batlantiradi. Talabalar o'z bilimlarini amaliy muammolarni hal qilish jarayonida qo'llash, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni tizimlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, tadqiqot ko'rsatdiki, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalari nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan, balki ularning motivatsion-harakat tizimi, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq. Kompetensiyalarning rivojlanishi, ayniqsa mentorlik va interaktiv pedagogik muhitda samarali bo'lib, talabalarga ilmiy izlanishlarni mustaqil amalga oshirishga imkon yaratadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning tadqiqotchilik salohiyatini shakllantirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron resurslar va ilmiy platformalardan foydalanish samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, talabalarning ilmiy natijalarni yaratish va taqdim etish jarayonini yanada tizimli va professional darajaga ko'taradi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida nazariy asoslarning qo'llanilishi, metodologik yondashuvlarning integratsiyasi va amaliy pedagogik vositalarning samaradorligini tasdiqladi. Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish mavzusida George-Reyes va S. Sumarni olimlari o'rtasida ilmiy polemika mavjud bo'lib, u ta'lim nazariyasi va amaliy metodlarning samaradorligi masalasida turlicha yondashuvlarni taklif qiladi. George-Reyes tadqiqotida ta'lim jarayonida murakkab fikrlash va raqamli platformalardan foydalangan holda kompetensiyalarni rivojlantirishga urg'u berilgan. Unga ko'ra, talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatlari nafaqat metodik bilimlar, balki analitik va tanqidiy fikrlash, shuningdek global ilmiy kontekstda innovatsion yechimlar ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq.

George-Reyesning fikricha, Ta'lim 4.0 tamoyillari va interaktiv raqamli muhit talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishini oshirish va ularni mustaqil izlanishlar olib borishga tayyorlashda asosiy vosita hisoblanadi. Boshqa tomondan, Sumarni loyiha asosida o'qitish metodini samarali yondashuv sifatida ilgari suradi^[9]. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, nazariy bilimlarni amaliy loyihalar orqali mustahkamlash talabalarning tadqiqotchilik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sumarni ta'kidlaydiki, loyiha metodologiyasi talabalarga ilmiy izlanishning bosqichlarini mustaqil boshqarish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish imkonini

beradi. Shu bilan birga, u metodik rahbarlik va mentorlikning integratsiyasi orqali talabani kompetensiyalarini rivojlantirishni samarali qiladi. Ushbu olimlarning yondashuvlarini solishtirish shuni ko'rsatadiki, George-Reyesning raqamli va murakkab fikrlashga asoslangan modeli nazariy va texnologik jihatdan kuchli bo'lsa-da, Sumarni modeli amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. George-Reyes texnologik innovatsiyalar va Ta'lim 4.0 kontsepsiyasiga urg'u bersa, Sumarni talabalarni ilmiy loyihalar orqali faol jalb qilishni taklif qiladi^[10]. Shu bilan birga, ikki yondashuvni birlashtirish talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda eng optimal yechim sifatida namoyon bo'ladi: nazariy asoslar va texnologik vositalar bilan mustahkamlangan loyiha asosidagi faoliyat talabani mustaqil izlanish va ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, ushbu munozara zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda nazariy va amaliy metodlarni integratsiyalash zaruratini ko'rsatadi. George-Reyes va Sumarni yondashuvlarini uyg'unlashtirish strategiyani optimallashtirish, ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa oliy ta'limning zamonaviy talablariga javob beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari tizimli tarzda yoritildi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki amaliy faoliyat, mustaqil izlanish va loyiha asosida o'qitish orqali yanada samarali shakllanadi. Adabiyotlar tahlili natijasida aniqlanishicha, George-Reyes va Sumarni yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib, bir tomondan murakkab fikrlash va raqamli ta'limning nazariy asoslarini, ikkinchi tomondan loyiha asosida o'qitishning amaliy samaradorligini ta'kidlaydi. Bu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish pedagogik jarayonni optimallashtirish va talabalarning ilmiy izlanish salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Metodologik jihatdan, sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlarining kombinatsiyasi, pedagogik kuzatish, intervyu va so'rovnoma orqali olingan natijalar talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini tizimli va samarali tarzda baholash imkonini berdi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron resurslar talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatini rag'batlantiruvchi samarali vosita sifatida aniqlanib, ta'lim jarayonining interaktivligini oshirdi. Natijada, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta'limning sifatini oshirish, ularni global ilmiy maydonda faol ishtirok etishga tayyorlash va professional kompetensiyalarini integrativ tarzda rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Shu bilan birga, pedagogik strategiyalarni takomillashtirish, metodik yondashuvlarni uyg'unlashtirish va interaktiv, loyiha asosidagi ta'limni joriy etish zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishning asosiy yo'llari sifatida tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haytbaeva S. Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni // Nordic Press. – 2024. – T. 3. – № 0003.
2. Shohbozbek E. va boshq. Bo'lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konseptual asoslari // Global Science Review. – 2025. – T. 1. – № 1. – S. 328-338.
3. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz: Surxon-nashr, 2022.
4. Ruzieva Z., Norboeva S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish // Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research. – 2025. – T. 2. – № 5. – S. 197-204.
5. Shohbozbek E. Pedagogika psixologiya: bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari // Global Science Review. – 2025. – 4(5). – S. 430-439.
6. Xoliqov I. Pedagogik mahorat: ilmiy-nazariy harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – № 2.
7. Abdurazakova Z. Ta'lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – № 4.2. – S. 277-279.
8. Lola Z., Shohbozbek E. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali uzluksiz ta'limni rivojlantirish // Global Science Review. – 2025. – 4(3). – S. 328-335.
9. Matkarimov J., Xakimova O., Imomaliyeva R. Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – № 4. – S. 232-235.
10. Shohbozbek E. Pedagogik metodologiya: uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri // Global Science Review. – 2025. – 4(5). – S. 774-782.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.